

SAIDA ZUNNUNOVA SHE'RLARIDA SIFAT METAFORALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xo'jamberdiyeva Go'zalxon Zafarjon qizi,

Qo'qon davlat universiteti

10.00.01 O'zbek tili mutaxassisligi 3 – kurs tayanch doktoranti

guzalxonsoliyeva5@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932143>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Saida Zunnunova she'riyatida qo'llanilgan sifati metaforalarning o'ziga xos badiiy-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoirani ijodida sifatlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi, ularning ruhiy holat, tabiat tasviri, rang va ramziy ma'nolarni ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida sifati metaforalarning obrazlilikni kuchaytirish, lirik kechinmalarni chuqurlashtirish hamda poetik matnning emotsional ta'sirchanligini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada shoiraning individual uslubi va poetik tafakkuri sifati metaforalar orqali namoyon bo'lishi ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: sifati metafora, badiiy tasvir vositalari, poetik nutq, lirik kechinma, ramziylik, obrazlilik, uslubiy xususiyati.

Аннотация. В данной статье анализируются своеобразные художественно-стилистические особенности качественных метафор, использованных в поэзии Саиды Зуннуновой. Освещается употребление прилагательных в переносном значении в творчестве поэтессы, а также их роль в выражении душевного состояния, изображении природы, передаче цветовых и символических значений. В ходе исследования раскрывается значение качественных метафор в усилении образности, углублении лирических переживаний и повышении эмоциональной выразительности поэтического текста. В статье на научной основе анализируется проявление индивидуального стиля и поэтического мышления поэтессы через качественные метафоры.

Ключевые слова: качественная метафора, средства художественной выразительности, поэтическая речь, лирическое переживание, символичность, образность, стилистические особенности.

Annotation. This article analyzes the specific artistic and stylistic features of adjective metaphors in the poetry of Saida Zunnunova. It examines the figurative use of adjectives and their role in expressing emotional states, natural imagery, color symbolism, and poetic meanings. The study highlights the significance of adjective metaphors in enhancing imagery, deepening lyrical expression, and increasing the emotional impact of poetic texts. The author's individual style and poetic thinking are revealed through the analysis of metaphorical adjectives.

Keywords: adjective metaphor, artistic devices, poetic language, lyrical expression, symbolism, imagery, stylistic features.

Kirish. Sifat leksemalarning asosiy xususiyati belgi ifodalash bilan birga she'r tarkibida ko'chma ma'no hosil qilish hisoblanadi. "Ijodkorning dunyoqarashi, g'oyasi, ruhiy olami, estetik ideali uning har bir obrazi, har bir tasviriy vositasida namoyon bo'ladi. Jumladan, Saida Zunnunova ham sifati leksemalardan metaforik ma'no hosil qilishda o'z ideolekti nuqtai nazaridan yondashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shoirani sifati leksemalardan she'rlari tilining ifodaviyligini ta'minlashda, ta'sirchanligini oshirishda foydalangan. Shoirani muayyan sifati leksemalarni she'rda turli konnotativ vazifalarda qo'llab, okkozional metaforalar

hosil qilgan. „Konnotativ ma’no nutqiy ma’no bo‘lganligi uchun unga chegara qo‘yib bo‘lmaydi, ya’ni, bir leksema bir nutqiy vaziyatda yana boshqa konnotativ ma’no anglatishi mumkin” [1, 56].

Muhokama va natijalar.

Fikrim g‘avvos kabi ko‘ngiim tubidan
Xislar *durdonasin* izlar dam-badam.

Durdona - a) Durning sarasi; yirik va toza inju. b) Toza, beg‘ubor, durdek oppoq. Yuqorida keltirilgan semalardan dastlabkisi leksemaning genetik semasi hisoblanadi. Qolgan barcha semalar leksemaning metaforik ko‘chma ma’nosi hisoblanadi. Berilgan parchada esa shoira fikmi g‘avvosga qiyoslab, ko‘ngli tubidagi xislarni dam - badam izlab sarson ekanligini keltiradi.

Notavon ko‘nglim netardi mubtalosi bo‘lmasa,
Ne qilay, bu mubtalolikning davosi bo‘lmasa.

Notavon - a) Hol-qudrati yo‘q; zaif, nimjon, nogiron. b) Nochor, bechor. Dastlabki a sema leksemaning genetik semasi bo‘lsa, b sema esa uning ko‘chma ma’nosi hisoblanadi. *Notavon* ko‘nglimning maftuni bo‘lmasa ne qilsin, bu shaydolikning hech qanday davosi yo‘qdir deb oshiqqa murojaat qilgan misralarida sifat metaforaning go‘zal namunasini yaratgan.

Yo‘llarida *beqadr* tuproq bo‘lishga roziman,
Bosib o‘targa uning kibr-u havosi bo‘lmasa.

Beqadr - qadsiz. Oshiq ma’shuqaga murojaat qilib, yo‘llarida hattoki bosib o‘tish uchun tuproq bo‘lishga rozi ekanligini, ma’shuqa mana shu tuproqni bosib o‘tishga kir-u havosi bo‘lmasa, uning yo‘llarida hattoki tuproq bo‘lishga rozi ekanligini ta’kidlab o‘tgan va sifat metaforani hosil qilgan.

Qora qoshlaringni ayovsiz to‘kdim,
Bilaman, onalar hayoli har vaqt.

Qora - a) Rang-tus mavjud ranglarning barchasidan to‘q; qozonkuya, ko‘mir tusidagi. b) Shu tusga moyil to‘q rangli; qoramtir. c) Is; qurum bosgan, qoraygan yoki oqlanmagan, pardozlanmagan. d) Qorong‘u; nursiz, ziyosiz; yorug‘. e) Shaxmat, shashka kabi o‘yinlarda oqqa zid donalar va shu donalar bilan o‘ynovchi tomon. f) Qora yoki qoraga moyil narsa. g) Biror narsaning uzoqdan yoki qorong‘idan ko‘zga tashlanuvchi. Shoira ushbu misralarida qalamga murojaat qilib, uning qora qoshlarini ayovsiz ayovsiz to‘kkanligi haqida so‘z boradi.

Yuksak tilaklarga, orzuga to‘liq.
Toza vijdon bilan, sodda qalb bilan
Ardoqlab o‘tirsam, seva balsam chin

Yuksak - a) Baland, yuqori. b) Yuqori darajadagi, oliy. Sodda - a) Tuzilishi, tarkibi jihatidan murakkab bo‘lmagan, oddiy. b) Yechilishi oson, yengil, jo‘n. c) Tushunilishi oson, ravon. Yuqorida keltirilgan semalar yuksak va toza, sodda leksemalarining genetik semalari

hisoblanadi. Shoira yuqorida keltirgan parchada esa yuksak leksemasi tilak leksemasi bilan, toza leksemasi vijdon leksemasi bilan, sodda leksemasi qalb leksemasi bilan birgalikda qo‘llab, sifat metaforaning go‘zal namunasini yaratgan.

Ariga bol tutdi shoshib, bildirmay,

Quruq vujudini topshirdi yelga.

Quruq- a) Suvi, nami batamom yoki qisman qochgan, nami yo‘q yoki oz. b) Yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yoki bo‘ladigan; yog‘in-chochinsiz. c) Maxsus quritilgan, qurigan. d) Quruqshagan, qurushiq. e) Suvi yo‘q, suvi qurigan. e) Ichida hech narsasi yo‘q, bo‘sh. Yuqorida keltirilgan a, b, c, d, e semalar quruq leksemasining genetik semasi hisoblanadi, qolgan barcha semalar esa metaforik ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Ushbu misolda gullar haqida so‘z borib, ariga bol tutib, quruq vujudini shamolga topshirganligi haqida so‘zlanadi.

Chakkasiga qizil gul taqib

Dilbar keldi, *go‘zal* may keldi.

Go‘zal - a) Juda ham chiroyli, husndor, xushro‘y. b) Kishi ko‘zini quvontiradigan, kishini maftun etadigan, zavqlantiradigan. *Go‘zal* leksemasi asosan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi, lekin bu misralarda *go‘zal* leksemasi may leksemasi bilan qo‘llanilib, sifat metafora hosil bo‘lgan.

Sezmay qizdirganda *berahm* oftob,

Baxtli ko‘zlaringga berolmayin tob,

Berahm - rahm- shavqatni bilmaydigan, rahmi yo‘q, qahri qattiq, rahmsiz. *Berahm* leksemasi oftob leksemasi bilan birgalikda qo‘llanilib, sifat metaforani hosil qilgan.

Izimga qaytaman bir hovur bo‘lib.

Qiziq bir ahvolga tushib qolaman,

Qiziq - a) Kishini hayron qoldiradigan, ajablantiradigan. b) Qiziqish uyg‘otadigan, diqqatni tortadigan; qiziqarli. Keltirilgan semalar qiziq leksemasining genetik semalari hisoblanadi. She‘riy parchada keltirilgan qiziq bir ahvol esa metaforik ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

Esar edi *sho‘x*, *mayin* yellar

Sochlarimdan tortdilar qo‘ymay.

Sho‘x - a) Vaqtini o‘yin bilan o‘tkazadigan, o‘yinqaroq; to‘polonchi. b) O‘yin-kulgini, hazil-huzulni yaxshi ko‘radigan; xushchaqchaq, quvnoq. Shoira yellarni *sho‘x*, *mayin* deya sifatlaydi. Mana shu *mayin* va *sho‘x* yellar shoira sochlarini tortayotganligini o‘ziga xos tarzda ifodalab bergan.

Mayin - a) Ipakdek yumshoq va nozik, qo‘lga muloyim urunadigan. b) Yoqimli muloyim. Ushbu misralarda esa shamol, yellar haqida so‘z boradi. Shoira yellarni *sho‘x*, *mayin* deya ta‘rif berish orqali sifat metaforaning go‘zal namunasini yaratgan.

Qaddini ko‘z - ko‘zlar gulhayri *tannoz*,

Xinalar uyatchan parilarsimon.

Tannoz - a) O‘ziga oro berib, noz bilan yuruvchi, nozik harakat qiluvchi. b) Biror foydali ish-yumush bilan shug‘ullanmay, o‘ziga oro berishdan, o‘yin kulgudan boshqani bilmaydigan, olifta. Uyatchan – Uyat - nomus his - tuyg‘usi kuchli; tortinchoq. Shoira mazkur misralarda gular, umuman gulhayri haqida so‘zlab, uning sifatlarini birma - bir sanab o‘tadi. Gulhayrining *tannoz*, xinalarning uyatchang egilib turishini parilarga qiyoslash orqali sifat metaforaning go‘zal namunasini yaratgan.

Zabonsiz shu toshlar, balki necha bor,

Tinglagan to‘y, bazm, do‘stlar sasini.

Balki qatlarida pinhon ardoqlar,

Yumshoq yo‘rgaklarning xushbo‘y isini.

Zabonsiz, tilsiz shu toshlar bir necha marta insonlaming shod - xurramliklari, g‘am - qayg‘ulariga guvoh bo‘lganliklarini ta‘kidlaydi. Balki qatlarida turli xil voqea - hodisalarga guvoh bo‘lib kelgandir, deya metaforik ko‘chma ma‘no hosil qilgan.

Qoyalar, *zabonsiz*, sirli qoyalar,

Asrlar izi bor peshanangizda

Saida Zunnunova qoyalarning viqorli, tik kabi sifatlarni aytgani holda, ularni yana sirli deya e‘tirof etadi. Yillarning, asrlarning izi bordir balki peshonasida deya e‘tirof etadi.

Quyoshga qanchalik yaqinsiz, ammo

Muzdek ko‘ksingizdan arimaydi qor.

Qoyalarning quyoshga qanchalik yaqin bo‘lishiga qaramay, ko‘ksida doimo qor bo‘lishini, doimo yuragi muzdek ekanligi bilan o‘zgacha huzur bag‘ishlashi haqida ta‘kidlab o‘tadi.

Yig‘lardi sog‘inib o‘rmon havosini,

Bezor bo‘lgan edi *yasama* qordan.

Yasama - a) Qo‘lda yasalgan, xonaki. b) Asli o‘ziniki emas, tayyorlangan, nota‘biy, sun‘iy. c) Haqiqiy bo‘lmagan, soxta. d) Qalbaki. Yuqoridagi she‘rda archa haqida gap ketib, archani o‘rmondan kesib keltirganligini, archaning o‘rmon havosini sog‘inib, so‘lib borayotganini ko‘rib qaytadan o‘rmonga olib kirganliklari haqidadir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, shoira she‘rlarida sifat metaforalarning mavzu bilan aloqador, ijtimoiy muhit ruhiyati aks etgan ajoyib namunalari yaratildi. Metaforalar shoira uslubidan kelib chiqqan holda rang-baranglik va o‘ziga xoslik kasb etadi va ijtimoiy muhit bilan aloqadordir. Saida Zunnunova she‘riyatida sifat metaforalar muhim badiiy-estetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira sifatlarni oddiy aniqlovchi birlik darajasida emas, balki chuqur ma‘no va hissiy yuk tashuvchi poetik unsur sifatida

qo‘llaydi. Natijada sifat metaforalar orqali lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari, sog‘inch va umidlari obrazli hamda ta’sirchan tarzda ifodalanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shoiraning metaforik sifatlari:

- ruhiy holatni teranlashtiradi;
- tabiat va inson kechinmalarini uyg‘unlashtiradi;
- rang va ramziy ma’nolar orqali poetik qatlamni boyitadi;
- matnning emotsional-ekspressiv kuchini oshiradi.

Shuningdek, sifat metaforalar Saida Zunnunova ijodining individual uslubini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ular orqali shoiraning nozik didi, ayollik sezgirligi va poetik tafakkuri yaqqol namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, Saida Zunnunova she’rlaridagi sifat metaforalar o‘zining obrazlilik, ramziyligi va hissiy teranligi bilan o‘zbek she’riyati poetikasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta’minlovchi leksik vositalar. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2009. – 261 b.
2. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o‘zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi. Filologiya fanlarinomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Andijon, 2003, - 61–66 b.
3. Saida Zunnunova. She’rlar. - Toshkent, 1982.
4. Tursunova O. O‘zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Farg‘ona, 2019, – 35 b.
5. Toshxo‘jayeva Sh. Erkin A‘zam asarlari lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. -Farg‘ona, 2017, - 54 b.
6. Yo‘ldashev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - Toshkent. 2007, 57 – b.
7. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she’riyati lingvopoetikasi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - Toshkent, 2007, - 89 b.